



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI YOSHLAR ISHLARI AGENTLIGI DIREKTORINING BUYRUG'I

20 25 y. " 28 " avgust

N^o 01-10/185

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 18-sentabrdagi 589-son qarori va 2025-yil 30-iyundagi 62-son bayoni ijrosini ta'minlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamalar komissiyasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 18-sentabrdagi 589-son qarori va "Ilmiy asoslangan yangi so'z va atamalarni rasmiy muomalaga kiritish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2025-yil 30-iyundagi 62-son (VM-24/25-62, 30.07.2025-y.) bayoni ijrosini ta'minlash maqsadida

B U Y U R A M A N:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 18-sentabrdagi 589-son qarori va 2025-yil 30-iyundagi 62-sonli bayoni ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamalar komissiyasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 18-sentabrdagi 589-son qaroriga muvofiq:

a) Yoshlar ishlari agentligi huzurida Atamalar ishchi guruhi faoliyati yo'lga qo'yilsin, uning tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin;

b) Atamalar ishchi guruhining vazifalari etib quyidagilar belgilanganligi ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin:

jamiyat taraqqiyoti, ilm-fan yutuqlari natijasida tegishli sohalarda yuzaga kelayotgan yangi so'z va atamalarni tadqiq etish, ularning o'zbekona muqobillarini topish hamda ularni bir xilda qo'llash bo'yicha takliflar ishlab chiqish va Atamalar komissiyasiga kiritish;

tegishli respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va xo'jalik birlashmalari tomonidan ishlab chiqilayotgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarida so'z va atamalarning to'g'ri qo'llanilishini ta'minlash;

tegishli respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarida davlat tilida ish yuritish bilan bog'liq yuzaga keladigan muammolarni o'rganish hamda hal etish choralarini ko'rish;

soha mutaxassislari, olimlar, tadqiqotchilarni jalb qilgan holda, sohaviy izohli va imlo lug'atlarini tayyorlash hamda nashr etib borish;

tegishli sohalarda atamashunoslikning rivojlanishi masalalarini tahlil qilgan holda, har olti oyda va yil yakuni bo'yicha amalga oshirilgan ishlar to'g'risida Atamalar komissiyasiga hisobot berish.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 30-iyundagi 62-sonli bayoniga muvofiq, o'zbek tili qoida va me'yorlari asosida shakllantirilgan hamda rasmiy muomalaga kiritiladigan yangi so'z va atamalar 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

4. Yoshlar ishlari agentligi:

a) markaziy apparati boshqarma va bo'lim boshliqlariga, hududiy bo'linmalari boshliqlariga ilmiy asoslangan yangi so'z va atamalardan rasmiy hujjatlar, xizmat yozishmalari hamda normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarida muntazam va tizimli foydalanishni yo'lga qo'yish;

b) Davlat tili masalalari bo'yicha maslahatchi (S.Rashidova)ga:

yangi so'z va atamalarning mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka yetkazish, ularning to'g'ri tushunilishi va qo'llanilishini rag'batlantirish maqsadida targ'ibot-tashviqot ishlarini doimiy tashkil etish;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamalar komissiyasiga har olti oyda hamda yil yakuniga qadar mazkur sohada amalga oshirilgan ishlar to'g'risida hisobot taqdim etilishini ta'minlash vazifalari yuklansin.

5. Ushbu buyruq ijrosini nazorat qilish Agentlik direktorining birinchi o'rinbosari D.Kattaxanova zimmasiga yuklansin.

Direktor



A. Sa'dullayev

**Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi Atamalar ishchi guruhining
TARKIBI**

1. D.Kattaxanova — Yoshlar ishlari agentligi direktorining birinchi o'rinbosari,
Atamalar ishchi guruhi raisi
2. Q.Yo'ldoshev — Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili adabiyoti universiteti
professori, *Atamalar ishchi guruhi a'zosi*
3. B.Mengliyev — Toshkent Amaliy fanlar universiteti filologiya fanlari doktori,
professor, *Atamalar ishchi guruhi a'zosi*
4. E.Asanov — 1000 Kitob loyihasi kontent menejeri,
Atamalar ishchi guruhi a'zosi
5. N.Rasulov — "Ibrat Akademiyasi" MCHJ o'quv bo'limi boshlig'i,
Atamalar ishchi guruhi a'zosi
6. S.Quronov — "Mutolaa" loyihasi muharriri, Filologiya fanlari doktori,
Atamalar ishchi guruhi a'zosi
7. K.Tillabayev — Toshkent Xalqaro maktabi inklyuziv ta'lim mutaxassisi,
Atamalar ishchi guruhi a'zosi
8. O.Tolib — Ilmiy, ilmiy-ommabop, adabiy-tahliliy va publitsistik maqolalar
muallifi, muharrir, tilshunos, pedagog,
Atamalar ishchi guruhi a'zosi
9. Sh.Tursun — "Sodiq school" maktabi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi,
tadqiqotchi pedagog, *Atamalar ishchi guruhi a'zosi*
10. H.Foziljonov — WordExpert AI asoschisi, AT sohasida tarjimon,
Atamalar ishchi guruhi a'zosi
11. T.Yusuf — WordExpert kompaniyasida texnik direktor,
Atamalar ishchi guruhi a'zosi
12. H.Mehmonov — "Cosmos Books" nashriyoti asoschi direktori,
Atamalar ishchi guruhi a'zosi
13. F.Maqsudov — Tarix fanlari doktori professor fanlar akademiyasi milliy
arxeologiya markazi direktori, *Atamalar ishchi guruhi a'zosi*
14. F.Jabborov — Til va adabiyot ta'limi jurnali bosh muharriri,
Atamalar ishchi guruhi a'zosi
15. M.Mamasaidov — Tahrirchi MCHJ direktor, *Atamalar ishchi guruhi a'zosi*
16. S.Rashidova — Yoshlar ishlari agentligi direktorining Davlat tili masalalari
bo'yicha maslahatchisi, *Atamalar ishchi guruhi kotibi*